RAQAMLI TA'LIMDA INDIVIDUAL YONDASHUV:O'QUVCHINING FAOLLIGI VA ISHTIROKINI OSHIRISH OMILLARI

Dusbekova Umida Bahodir qizi
Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani 40-sonli maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
umida.dosbekova@gmail.com
998885000047

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida individual yondashuvning ahamiyati, bu yondashuv orqali o'quvchi faolligi va ishtirokini oshirish omillari tahlil qilinadi.Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida pedogogik ta'limni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish masalalari yoritilgan.Shuningdek, adaptiv platformalar, gamifikatsiya, interaktiv vositalar, sun'iy intellekt yordami va talabalarni o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish raqamli ta'lim samaradorligini oshirish omillari sifatida ko'rsatib o'tilgan.Shuningdek, maqolada texnik infratuzilma muammolari va o'quvchilarning mustaqil ta'limga to'liq tayyor emasligi kabi to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Raqamli ta'lim, individual yondashuv, adaptive o'quv tizimi, gamifikatsiya, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim.*

Аннотация: *В данной статье анализируется значение индивидуального подхода в цифровой образовательной среде, факторы, повышающие активность и участие студентов посредством этого подхода. В статье освещаются вопросы цифровизации педагогического образования и внедрения личностно-ориентированного образования с использованием цифровых технологий на основе постановлений Президента Республики Узбекистан. Также в качестве факторов повышения эффективности цифрового образования указаны адаптивные платформы, геймификация, интерактивные инструменты, искусственный интеллект, развитие навыков самоуправления студентов. В статье также описываются препятствия, такие как проблемы технической инфраструктуры и неполная готовность студентов к самостоятельному обучению, и пути их преодоления.*

Ключевые слова: *Цифровое образование, индивидуальный подход, адаптивная система обучения, геймификация, искусственный интеллект, дистанционное обучение.*

Abstract: *This article analyzes the importance of an individual approach in the digital educational environment, factors that increase student activity and participation through this approach. The article highlights the issues of digitalization*

of pedagogical education and the introduction of student-centered education using digital technologies based on the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan. Also, adaptive platforms, gamification, interactive tools, artificial intelligence, and the development of student self-management skills are indicated as factors for increasing the effectiveness of digital education. The article also describes obstacles such as technical infrastructure problems and students' incomplete readiness for independent learning, and ways to overcome them.

Keywords: *Digital education, individual approach, adaptive learning system, gamification, artificial intelligence, distance learning.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedogogik ta’lim sifatini oshirish va pedogog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi PQ-289-son qarorida pedogog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg’or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish vazifalari belgilab berilgan[1].

Jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyani joriy etish dolzarb ijtimoiy zaruriyat ekaniga urg’u bergan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etib o‘tadi:”Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart.Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan boorish imkoniyatini beradi.Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag’ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz.Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak,qachon kirishamiz?!Ertaga juda kech bo‘ladi”[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Raqamli texnologiyalar (inglizcha: Digital technology)-signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko‘rsatishga asoslangan texnologiyalar.

Boshqacha qilib aytganda, raqamli texnologiya kodlashtirilgan (raqamli signallar yordamida uzatiladigan) axborotlarning diskret holda. ya’ni, uzlukli-qisqa ,ammo muayyan vaqt oralig’ida olish imkonini beradigan texnologiya sanaladi.

Individual yondashuv - bu har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini (bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishlari) hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish usuli hisoblanadi.Raqamli vositalar esa, jarayonni avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi.Jumladan:

Adaptiv platformalar (Khan Academy,Coursera, Moodle, Google Classroom);

Moslashtirilgan topshiriqlar va o‘z-o‘zini nazorat qilish testlari;

O‘qituvchi va sun’iy intellekt orqali feedback.

NATIJALAR

Bu komponentlar zamonaviy raqamli ta’lim tizimining samaradorligini ta’minlashda o‘zaro bir butun sifatida ko‘rib chiqiladi.Shuningdek, yuqoridagi raqamli vositalar yordamida mahalliy OTM larda olib borilgan tadqiqotdan quyidagicha fikr va xulosalar tahlil qilindi:

Platformalarning foydalanishda qulayligi;

Moslashtirilgan kontent va shaxsiy o‘qitish tajribasi;

Motivatsiya va gamifikatsiya elementlarining samaradorligi;

Adaptiv o‘quv moduli[3].

MUHOKAMA

Raqamli ta’limda o‘quvchi faolligi ikki yo‘nalishga ajraladi:

Akademik faollik – darsda qatnashish, topshiriqlarni bajarish, baholanishda ishtirok etish;

Interaktiv faollik – fikr almashinuvi, savol- javoblar, kollaborativ ishlarda qatnashish.

O‘quvchi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar esa, ichki motivatsiya, adaptive yondashuv, interaktiv imkoniyatlar, jamoaviy va mashg’ulot asosida ishlash, ma’lumotlarni tahlil etish orqali feedback, individualizatsiya kabilarni qamrab oladi. *Raqamli ta’limda individual yondashuvga to‘sqinlik qiluvchi muammolar* - texnik infratuzilmaning cheklanganligi (internet, qurilma, platformalar sifati); o‘quvchilarda mustaqil ta’limga tayyorlik yetishmasligi, vaqtni boshqarish ko‘nikmalarning sustligi. *Yechimlar* - raqamli platformalarda individual yondashuvga asoslangan o‘quv modullarini ishlab chiqish; o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulated learning) ko‘nikmalariga o‘rgatish; gamifikatsiyani ta’lim dasturlariga integratsiya qilish.

XULOSA

Raqamli ta’limda individual yondashuv – o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlariga mos tarzda ta’limni tashkil qilish orqali ularning faolligi va ishtiroki oshishiga yordam beradi.Bu esa, o‘z navbatida, ta’limni yanada samarali tashkil qilishga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va mustaqil ravishda o‘z ustida ish olib borishga zamin yaratadi.Bundan tashqari, o‘quvchilarni ta’lim jarayonida zamon bilan uyg’unlikda ketishiga hissa qo‘shadi.Shuningdek, ta’limni individual tashkil etish bu o‘quvchining shaxsan o‘zi bilan yakka holda shug’illanish, har bir o‘quvchining o‘z shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini namoyon qilishga asos bo‘ladi.O‘quvchining zamonaviy texnologiyalardan erkin foydalana olishi chuqurroq bilimga ega bo‘lishi va qo‘shimcha kerakli ma’lumotlar topa olishini ta’minlaydi.Bu kabi individual ta’limga

asoslangan metodikalar, yoshlarning erkin fikrlashi va jamoaviylikka o‘rganishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli Farmoni.
https://lex.uz/docs/3107042
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.
https://lex.uz/docs/5841063
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–289-son qarori.
https://lex.uz/docs/6073818
4. OECD (2021). “The Digital Transformation of Education: Connecting Schools, Empowering Learners.”
https://www.oecd.org/education/
5.. Khan Academy. https://www.khanacademy.org/
6. Moodle Learning Platform. https://moodle.org/